
Yangi istiqbolli yo’nalish

2020-yil 31-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida ilm-fanni rivojlantirishga bag’ishlab o’tkazilgan yig’ilish davomida “Molekulyar ekologiya” sohasini rivojlantirish topshirig’i berilgan.



Ushbu topshiriqqa binoan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorlikda OTMlarning fan dasturlariga “molekulyar ekologiya” mavzularini kiritish, dolzarb ekologiya muammolarni hal qilishda molekulyar ekologiya laboratoriyalarini tashkil etish, ekologik muammolarni o’rganishda va hal qilishda molekulyar ekologiya sohasi bo’yicha loyihalar portfelini shakllantirish kabi amaliy chora-tadbirlarni o’z ichiga olgan “Yo’l xaritasi”ni ishlab chiqdi.